

## XIII-XIV ASR BIRINCHI YARMIKA QADAR MOVAROUNNAHRDA TURK-MO‘G‘UL QABILALARINING JOYLASHUVI

Orziev Mahmud Zaynievich,  
Buxoro davlat universiteti “Jahon” tarixi kafedrasi t.f.f.d. (PhD)

Бекназаров Собиржон Баротбой ўғли,  
Халқаро инновацион университет ўқитувчиси, мустақил талқиқотчи  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.002>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingizzxon boshchiligidagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining Movarounnahr hududlarini istilo qilishi va Chingizzxon tomonidan ikinchi o‘g‘li Chig‘atoysiga ulus sifatida berilishi natijasida turk-mo‘g‘ul qabilalarining kelib o‘rnasha boshlashi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, mo‘g‘ullar sultanatida o‘zaro taxt uchun kurashlar boshlangani, ushbu kurashlar domiga tortilgan Chig‘atoyxon avlodlari amalda o‘z yer-mulklarini boy bergenliklari, chingiziy Xaydu 1279 yilda chaqirgan qurultoyda Chig‘atoy ulusi deyarli tugatilganligi, ulusning shaxsiy qismida yashovchi qabilalarni Movarounnahr hududiga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lganliklari, Movarounnahr hududida yashagan turk, mo‘g‘ul, turk-mo‘g‘ul, kelib chiqishi noma‘lum bo‘lgan qabilalar va ularning joylashuvi, ularning nomlanishi ma’nos, kelib chiqishiga oid afsona va rivoyatlar keltirib o‘tiladi. Bundan tashqari turk-mo‘g‘ul qabilalarining qachon, qaysi siyosiy voqeiyliklardan keyin kirib kelganligi, urug‘-qabilalarning yashash joylarini o‘zgartirish sabablari, ayrim urug‘larning kuchayib borib, bir qator qabilalar ustidan nazorat o‘rnatalishlari, Amir Temuring hokimiyat uchun kurash olib borgan davrida ushbu qabilalar tutgan mavqeい va joylashgan o‘rni, O‘zbek xalqining etnik shakllanishida turk-mo‘g‘ul qabilalarining ishtiroki, tarixiy ahamiyati imkon qadar tarixiy adabiyotlardagi ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ochib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: Qabila, urug‘, istilo, ulus, minglik, qurultoy, Xalxa mo‘g‘ullari, Balxash ko‘li, ittifoq, viloyat, kulrang bo‘ri*

## РАССЕЛЕНИЕ ТЮРКО-МОНГОЛЬСКИХ ПЛЕМЕН В МОВАРУННАХРЕ ДО ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIII-XIV ВВ.

Орзиеев Махмуд Зайньевич,  
Бухарский государственный университет Кафедра «Всемирной истории» к.и.н.

Бекназарова Собиржон Баротбайевич,  
преподаватель Международного инновационного университета

*Аннотация: В данной статье тюрко-монгольские племена начали заселяться в результате завоевания территории Моваруннахра тюрко-монгольскими племенами под предводительством Чингисхана и того факта, что Чингисхан передал их своему второму сыну Чигатая в качестве улуса. . поднятый Также в Монгольском царстве началась борьба за престол, потомки Чигатай-хана, участвовавшие в этой борьбе, практически потеряли свои земли, род Чигатай был практически уничтожен на съезде, созванном Чингисханом в 1279 году, восточная часть народа, которым они были вынуждены переселить живые племена на территорию Моваруннахра, турецкие, монгольские, тюрко-монгольские, племена неизвестного происхождения, проживавшие на территории Моваруннахра и их местонахождение, их названия. Приводятся легенды и предания о его происхождении. Кроме того, когда пришли тюрко-монгольские племена и после чего, политические реалии, причины смены мест проживания родов и племен, усиление некоторых родов и установление контроля над рядом племен, борьба Амира Темура за власть Положение и Местонахождение этих племен в ходе борьбы, участие тюрко-монгольских племен в этническом формировании узбекского народа, их историческое значение выявлены путем сравнительного анализа данных исторической литературы.*

*Ключевые слова: Племя, род, завоевание, улус, тысяча, съезд, халха-монголы, озеро Балхаш, союз, регион, серый волк.*

# SETTLEMENT OF TURKO-MONGOL TRIBES IN MOVAROUNNAHR UNTIL THE FIRST HALF OF XIII-XIV CENTURIES

*Orziev Mahmud Zaynievich,  
Bukhara State University «World» History Department Ph.D. (PhD)*

*Beknazarov Sobirjon Barotboy,  
teacher of the International Innovation University, independent researcher*

*Abstract: In this article, Turk-Mongol tribes started to settle as a result of the conquest of Movarounnahr territories by the Turk-Mongol tribes under the leadership of Genghis Khan and the fact that Genghis Khan gave them to his second son Chigatai as an ulus. Also, the struggle for the throne began in the Mongol kingdom, the descendants of Chigatai Khan, who were involved in these struggles, practically lost their lands, the Chigatai clan was almost destroyed in the congress called by Genghis Khan in 1279, the eastern part of the nation that they were forced to move the living tribes to Movarounnahr territory, Turkish, Mongolian, Turk-Mongolian, tribes of unknown origin who lived in Movarounnahr territory and their location, their names Legends and legends about its origin are cited. In addition, when Turk-Mongol tribes entered and after which political realities, the reasons for changing the places of residence of clans and tribes, the strengthening of some clans and establishing control over a number of tribes, Amir Temur's struggle for power The position and location of these tribes during the struggle, the participation of the Turk-Mongol tribes in the ethnic formation of the Uzbek people, and their historical significance have been revealed through a comparative analysis of the data in historical literature as much as possible.*

*Key words:* Tribe, clan, conquest, ulus, thousand, congress, Khalkha Mongols, Lake Balkhash, union, region, gray wolf.

Kirish. Movarounnahr hududi XIII asrda ulkan Xorazimshohlar davlatining markaziy qismi bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda o‘z davrining ilg‘or hududlaridan biri ham bo‘lgan. Shuningdek, ushbu mintaqada yashagan turkiy qabilalarning so‘nggi oqimi IX-XI asrlarga oid bo‘lib, XIII asr boshlarida, ya’ni Chingizxon tomonidan Movarounnahrning istilo qilinishi turkmo‘g‘ul qabilalari kirib kelishining yangi to‘lqinini boshlab yuborgan. Movarounnahr hududi Chig‘atoy ulusi tarkibiga kirgan bo‘lib, ushbu maqolada Chig‘atoy sulolasining dastlabki davridan, Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat tuzishga kirishgunga qadar bo‘lgan siyosiy o‘zgarishlar jarayonida turk-mo‘g‘ul qabilalarining joylashuviga va joylashuvdagiga o‘zgarishlarga imkon qadar to‘xtalib o‘tamiz.

Adabiyotlar sharhi. O‘rganilayotgan mavzuni biz manbalardan tarjima qilingan va manbaviy asosga ega bo‘lgan adabiyotlarga tayanib o‘rganishga harakat qildik. Jumladan, Erondagi elxoniylar saroyida ishlagan Rashididdin Fazlulloh ibn Abulkayr Ali Hamadoni (Rashiduddavla yoki Rashid tabib yashagan yillari 1247-1318 yy)ning G‘ozonxon (1295-1304 yy) buyrug‘iga asosan yozilgan uch tomlik “Jome at-tavorix” (fors. جهاد اعتماد مسیح; mo‘g‘ulcha Sudrīn chuulgan) asarining rus tilidagi tarjimasidan foydalandik. Ushbu asarda turk-o‘g‘ul qabilalari xususida, ularning yashagan hududlari, kelib chiqishlari xususida aniq ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafaronma”sida ham fakt va dalillarga boy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va uning xolavachchasi bo‘lgan Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari Amir Temur va temuriylar davridagi turk-mo‘g‘ul qabillariga oid kamchiliklarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari turli olimlarning ilmiy izlanishlarini xususan, A.V. Arapovning Qoraunas-Nikuderiylargacha oid, G.E. Grumm-Grjimayloning “Zapadnaya Mongoliya i Uryanhayskiy kray. Istoricheskiy ocherk etix stran v svyazi s istorii Sredney Azii. Tom. II. – Leningrad, 1926”, A.Ochirning “Mongolskie etnonimy: voprosy proisxojeniya i etnicheskogo sostava mongolskikh narodov. Elista: KIGI RAN. 2016” asarlarini ham alohida ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Natijalar va munozaralar. XIII asr boshlarida Movarounnahr Chingizxon tomonidan istilo

qilingan edi. Chingizzon qo'shini tarkibida nafaqat mo'g'ullar, balki turkiy qabilalar ham mavjud bo'lgan. Vafotidan oldin Chingizzon qo'l ostidagi yerlarni o'g'illariga ulus tarzida bo'lib bergen bo'lib, Movarounnah va Sharqiy Turkiston, Yettisuv hududlari ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga ulus sifatida berilgan. Chig'atoyxonga to'rt ming kishidan iborat mo'g'ul qo'shini berilgan bo'lib, ular Barulatay (Berultoy), Barlos, Qo'ng'irot qabilalari ekanligini tarixchi Rashididdin keltirib o'tgan. Shuningdek, ushbu qabilalardan faqat qo'ng'irotlarni Balx va Bog'dis o'lkalarida joylashganligini ham yozib qoldirgan[14. 275]. Ammo, to'rtinchı minglik qaysi qabila vakillari ekanligi, Berultay va Barloslar dastlab qaysi hududlarda joylashganliklari xususida ma'lumotlarni keltirib o'tmagan. Ammo, "Tarixi Rashidiy"da Dug'lat qabilasi ham Chig'atoxon ixtiyoriga berilgani va u dug'latlarni "Manglay Sube" (Kungay taraf-quyosh chiqadigan taraf degani bo'lib, Sharqiy Turkiston hududi o'sha davrda shu tariqa nomlangan) ga joylashtirganligi keltirilgan[10. 60]. Ushbu qabila vakillari Movarounnahrga Tug'luq Temurxon va Ilyosxo'jalarning bosqinchilik yurishlarida asosiy harbiy kuch sifatida tilga olib o'tilgan.

Chig'atoxon vafotidan bir muddat o'tib, Chingizzon avlodlari o'rtasida o'zaro taxt uchun kurashlar boshlangan bo'lib, asosiy kurashlar sultanat sharqida Hubilayxon va Ariq-Buqa o'rtasida sodir bo'lgan. Ammo, O'qtoxon avlodlaridan bo'lgan va 1236-1301 yillarda hukumronlik qilgan Xaydu (Xaydu-O'qtoxon nabirasi. Otasi Xashin bo'lib, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish oqibatida yoshligida vafot etgan. Xayduning onasi Shabkana-xotun Bahrin qabilasidan bo'lgan. Munke hoqonning taxtga chiqish (1251 y) davrida O'qtoy avlodlari qirg'in qilingan bo'lsada Xayduning hayoti saqlab qolangan va uzoq Tarbag'atoyna surgun qilingan. Ariq-Buqaning Hubilayxonga qarshi kurashida uni qo'llab-quvvatlagan. Arig'-Buqa yengilgach, Xaydu o'z kuchlariga tayangan holda o'zi uchun ulus talab qila boshlagan. U onasining Bahrin qabilasiga tayanib ish ko'ra boshlagan. Shuningdek, Chig'atoyni avlodni Olg'uxon va Jo'ji avlodni Berka o'rtasidagi kurashda o'z manfaati yo'lida qatnashgan. Jo'ji avlodlari yordamida Emil, Tarbag'atoyni va Qora Irtish havzasini egallab olgan. Olg'uxonning bevaqt o'limi Xaydu uchun keng imkoniyatlarni ochgan. Chig'atoyni ulusining yangi xoni Baroqxonni Sirdaryo bo'yida Xaydu qo'shinlaridan mag'lub bo'lishi 1269 yilda qurultoy chaqirilishiga sabab bo'lgan [4. 22]. isyoni Chig'atoyni ulusining bundan keyingi siyosiyijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti uchun bu kurashlar katta ta'sir ko'rsatgan. Chig'atoyni ulusining bo'linishiga Xaydu tomonidan 1269 yilgi Talas vodiysida chaqirilgan qurultoy sabab bo'lgan deb, hisoblash mumkin. Qurultoyda Xaydu tomonidan Chig'atoyni ulusini istilo qilganligi qonuniy deb topilgan[9. 22]. Chig'atoyni avlodlariga zararni to'ldirish maqsadida faqatgina Movarounnahr yerlari berilgan. Natijada, Chig'atoyni ulusiga kirgan ko'plab mo'g'ul urug'-qabilalari Movarounnahrga ko'chib o'tishgan. Ba'zi turk-mo'g'ul urug'-qabilalarining turli hududlarga bo'linib, tarqalib ketishiga ham sabab bo'lgan. Misol tariqasida, keyinchalik O'zbek xalqi shakllanishida faol ishtirok etgan ming qabilasi Uryanxay mo'g'ullarining bir urug'i sifatida ham tilga olingan. "Mingot" etnonimidagi "ot"-qo'shimchasi ko'plik ma'nosini anglatuvchi qo'shimcha hisoblanadi. Shuningdek, Qatag'on qabilasi nomi Xalxa mo'g'ullari orasida ham urug' sifatida uchraydi. Qo'ng'irot etnonimi esa, mo'g'ullar orasida Xonxorot (pastlik, soylik pastida yashovchilar ma'nosini bildiradi) shaklida uchraydi[6. 533]. Chig'atoyni ulus hududlarida ushbu qabilalar ham mavjud bo'lgan deb hisoblashga barcha asoslar yetarli.

Qurultoyda chiqarilgan qarorlar keyinchalik Chig'atoyni aholisining ikki qismga bo'linishi uchun zamin hozirlagan. Chig'atoyni va O'qtoy avlodlarining o'zaro kurashlari oxir-oqibat Chig'atoyni ulusini Balxash ko'li chegara bo'lgan ikki qismga bo'linib ketishiga sabab bo'lgan. Mo'g'ul atamasi Movarounnahrlik chig'atoylar uchun Yettisuv, Sharqiy Turkistondagi chingiziylar ma'nosini bildira boshlagan[18. 19]. Chig'atoyni ulusining bir-biriga raqib bo'lgan qismlari vujudga kelganligi ko'plab tarixiy adabiyotlarda qayd etiladi. Bu omil keyinchalik Amir Temurni Movarounnahrni birlashtirish jarayonida yaqqol ko'zga tashlangan. Movarounnahrga kelgan urug'-qabilalardan eng yiriklari asosan to'rtta bo'lib, ular Arlot, Jaloyir(Jaloyir qabilasining shakllanishi XII asr oxiri – XIII asr boshlariga to'g'ri kelishi xususida ma'lumotlar mavjud. Jaloyirlar turk-mo'g'ul va tunguz urug'larining o'zaro birlashuvni natijasida vujudga kelgan bo'lib, dastlab yetti aymoqni tashkil qilganlar. Ularning ikki urug'i g'arbiy qanotga, to'rt urug'i sharqiy qanotga ajratilgan, bir ismi esa o'qtoy ixtiyoriga berilgan. Chingizzon

mulklari taqsimlanganlar jaloyirlar Jo‘ji, Chig‘atoy uluslari va keyinroq elxoniylar saltanati hududlariga ham tarqalganlar. To‘liqroq qarang [12. 190-191]), Qavchin va Barlos qabilalari bo‘lgan. Qavchinlar saroyda xon xizmatida bo‘lsalar, arlotlar Amudaryo bo‘ylarida, jaloyirlar Xo‘jand atroflarida, barloslar Kesh hududida o‘rnashganlar[1. 56]. Endilikda mo‘g‘ullarning o‘troqlashuvi va islom diniga o‘tish jarayonlari kuchayib borgan.

Qoraunas qabilasi haqida Rashididdin ularni Bog‘dis viloyatida yashashlarini keltirib o‘tgan. Shuningdek, Sulduz qabilasining bir urug‘i sifatida ham tilga olib o‘tilgan[3. 163;175]. Muiniddin Natanziy ma‘lumotlarida, Qoraunas qabilasi Movarounnahrdagi kuchli va ko‘p sonli qabilalardan bo‘lib, amir Qazag‘an xonadoniga bo‘ysungani va uning vafotidan keyin amir Husaynni qo‘llab-quvvatlaganliklari keltirilgan. Shuningdek, ular yashaydigan hududlar sifatida Munk va Solisaroy (Qadimgi huttalon, hozirgi baljuvon hududlarining nomlanishi) sifatida keltirib o‘tilgan[11. 44]. Qoraunas atamasi Chig‘atoy ulusi ikkiga bo‘lingandan so‘ng, sharqiy chig‘atoylarning g‘arbiy chig‘atoylarni nomlanishini ham anglatgan bo‘lib, mo‘g‘ullar tilida duragay, chatishma ma‘nolarini ham bergenligini akademik V.V. Bartold tadqiqotlarida keltirilgan[5. 170]. Shuningdek, “Boburnoma”da Kobul viloyati xususida keltirilgan fikrlarda, “Yana ba’zi kentlarida va viloyotida pashoyi va paroji va tojik va baraki va afg‘ondur. G‘azni tog‘larida hazora va nakdaridur. Bularning orasida ba’zi mo‘g‘uliy til bila hikoyat qilurlar[7. 189]”-degan jumlalarni keltirgan. Qoraunas qabilasi dastlab Chig‘atoyxon avlodni Nikuder-o‘g‘longa xizmat qilganligi uchun qabilaning ikkinchi nomi Nikuder deb ham atalgan[2. 62]. Amir Qazag‘an va uning Nabirasi amir Husayn Qoraunas qabilasiga tayanib Chig‘atoy ulusini boshqarganlar. Keyinchalik, qoraunaslar Amir Temur xizmatiga o‘tganlar.

Mo‘g‘ul qabilalaridan hisoblangan oyratlar aslida to‘rt qabila ittifoqi bo‘lib, Rashididdin ularni alohida bir qabila ekanligini Eron va Turonda bu qabila vakillaridan bo‘lgan amirlar ko‘pligini keltirgan[13. 120]. Amir Temurning Ilyosxo‘jaga qarshi olib borgan kurashlari davrida Moxon (Moxon-hozirgi Turkmanistonning Marv shahri atroflarining Amir Temur va temuriylar davridagi nomlanishi[16. 18]) hududi tilga olinib, bu yerda Alibek Jonqurbaniy qo‘lida 62 kun asirlikda bo‘lganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tilgan. Mo‘g‘ullar hukumronligi davrida Moxonda Oyrat qabila ittifoqiga kiruvchi Jonqurbaniy urug‘i ko‘chib kelib o‘rnashgan. Shuningdek, joniqurbaniyalar Niso va Obivardda ham joylashganligiga oid ma‘lumotlar mavjud. Oyratlar to‘rtta qabila ittifoqi bo‘lib, tarixiy adabiyotlarda Durben Oyrat shaklida keltirilgan. Rashididdin oyratlar Kutuka beki boshchiligidida Chingizzonga bo‘ysungan vaqtida ularni to‘rt ming ekanligi, ular Chingizzon vorislariga munosib xizmat qilayotganliklariga oid ma‘lumotlarni keltirgan[14. 269]. Ayrim tarixchi olimlar Durben Oyrat ittifoqi XV-XVII asr o‘rtalariga qadar bo‘lgan siyosiy jarayonlarning mahsuli deb baholaganlar. Shuningdek, ushbu xronologik davrda ittifoq uch marta tuzilganligini keltirib o‘tganlar[15. 7-12]. Rashididdin keltirgan ma‘lumotlar esa, Oyratlarni qabila sifatida XIII asr boshlarida shakllanganligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari XVII asr o‘rtalari (1637 y) oyratlarning Choros urug‘i boshchiligidida uchinchi bora ittifoq shakllangan va shu yili Jung‘or xonligi ham tashkil etilgan. Oyratlar ittifoqiga kirgan va Jung‘or xonligi tuzilgandan keyin unda yetakchilik rolini o‘ynagan Choros qabilasi nomining kelib chiqishi xususida turli ma‘lumotlar keltirilgan. Ulardan birida, turk-mo‘g‘ullarning umumiyligi ajdodi Borte-Chino (kulrang bo‘ri)ning o‘n biringchi avlodni Duva-Soxorni to‘rt o‘g‘lidan tarqalganliklari, dastlab ularni Derbet, Dorben deb ham nomlaganlari, Chig‘atoy ulus parchalangandan keyin derbetlar turk va tojiklar tomonidan choro-to‘rtovlon deb atalganliklari, keyinchalik Jung‘oriyaga shu nom bilan ko‘chib o‘tganliklariga oid ma‘lumotlar mavjud[12. 242-244]. Ushbu fikrlar oyratlarning Choros urug‘i ham Chig‘atoy ulusi hududlarida yashaganliklari xususida xulosa qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Turk-mo‘g‘ul qabillaridan bo‘lgan qatag‘onlar afsonaga ko‘ra, Alanquvanining katta farzandi Bugu Xatagi, mo‘g‘ulcha xatagin (qatag‘on) qabilasi tarqalgan. A.Ochir fikricha, xan (turkcha xon, mo‘g‘ulcha xad) so‘zlarining Oltoycha (telengit, tele, turk) tegin so‘zining qo‘shilib ketishidan ubu etnonim hosil bo‘lgan. Qabila X asrga qadar Onon, Kerulen, Tola daryolari bo‘ylarida Xentey tog‘lari atrofida yashagan. XII asrda Xalxin-gol daryolari atrofida yashaganlar. Arig‘-Buqa va Hubilayxon, shuningdek, Xaydu o‘rtasidagi kurashlar davrida

ularning bir qismi g‘arbgan ketgan va Eronga qadar tarqalgan[14. 203-205]. Qatag‘on qabilasi O‘zbek xalqi shakllanishida faol ishtirok ishtirok etgan bo‘lib, ulardan tashqari mo‘g‘ullar istilosи va temuriylar sultanati davrida Movarounnahrda Qang‘li, Qipchoq, Qirg‘iz, Uyg‘ur, Qorluq, Arg‘in, Olchin, Togus, Yuz, Qavchin qabilalar turk yoki turklashgan qabilalar sifatida, Kerait, Nayman, Xitoy, Burgut qabilalari turk, mo‘g‘ul yoki tungus qabillalari vakillari sifatida, Quralas, Nukus, Qirot, Jaloyir, Oyrat, Derbet, Ongit, Tatar-qo‘ng‘iroq, Xatagin qabilalari sof mo‘g‘ul qabilalari vakillari sifatida, Makrin, Ming, Kenegas kabi qabilalarning kelib chiqishi noma‘lum bo‘lsada, O‘zbek xalqi shakllanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan Mo‘g‘ullar istilosи va temuriylar sultanati davrida muhim o‘rin tutganlar[6. 530-533]. Ammo, ushbu qabilalarning o‘rnashgan hududlari xususida keyingi izlanishlarimizda batafsil to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Ko‘pgina urug‘-qabilalarning Movarounnahrda joylashuviga o‘sha davrda yaratilgan musulmon muarixlari tomondan yozilgan asarlarda qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, Amir Temuring hokimiyat tepasiga kelish arafasida Chig‘atoy ulusidagi parokandalik xususida yozgan Sharafiddin Ali Yazdiy, Balxda O‘ljoy Bug‘a Sulduz, Shibirg‘onda Muhammad Xo‘ja Aperdi Nayman, Xuttalon va Arxang saroyda Kayxusrav va O‘ljoy Aperdi, Toshkent va Saripulda Xizr Yasavuriy, Ko‘histonda amir Sotilmishlar o‘zlarini mustaqil hokim ekanligini ma‘lum qilganliklarini keltirib o‘tadi[8. 19]. Ushbu jumla orqali biz, Sulduz, Nayman, Aperdi, Yasavuriy kabi qabilalarning asosiy yashagan joylariga aniqlik kiritib olishimiz mumkin. Ushbu jarayon Hofizu Abruda yanada yaqqolroq tasvirlangan bo‘lib, “Amir Hoji Barlos Kesh shahri va unga qarashli, Barlos amirlarining asl yurti bo‘lgan, yerkarni egalladi. Amir Boyazid esa, jaloyir amirlariga qarashli Xo‘jand viloyatini o‘z qo‘l ostiga oldi. Qarog‘ inlardan hisoblanmish Amir Xusayn, o‘zining bir guruh qadim mo‘gullari va ul urug‘dan kelib chiqqan qaravunoslar bilan qo‘rquvga tushub bugun bir tomonda bo‘lsalar, ertasiga boshqa tomonda bo‘ladilar. O‘ljoy-Bugo sulduz ham sardorlik da‘vosini qilib, sulduzlar to‘pi bir tomon bo‘lgan edi. Shoh Muhammadhoja Zindahashm va Karason [ikkalasi] Andxud va Shibirg‘onni egalladilar. Shoh Muhammad Badaxshoniy o‘z Ko‘histonini mustahkamlab oldi hamda ul viloyat xukmdorligini tama‘ qilardi. Amir Kayxusrav va amir Uljoytu Apardi ittifoqlikda Katlon va unga tobe’ joylarni egallab oldilar. Amir Xizr yasavuriy o‘z qabilalari va ko‘chmanchilarini (atrofiga) yig‘ib, o‘zini boshqalardan ko‘prok, mustaqil deyishga xakli, - deb bilardi. Shu boisdan, ul mamlakatda har kun bir fitna va har lahzada bir g‘avgo kelib chiqardi[17. 97a]”-tarzida bayon qilingan. Bu jumla orqali qabilalar joylashuvi yanada aniqroq yoritilgan.

Yasovur qabilasining bir qismi Buxoro vohasida ham yashaganligini tarixiy adabiyotlar ham tasdiqlaydi. Amir Husaynga qarshi kurash yillarda Amir Temurga sadoqatli sarkardalardan biri Mahmudshoh Buxoro aholisidan soliq to‘plash uchun Amir Temur tomonidan yuborilganligi ham manbalarda qayd etib o‘tilgan[8. 46-49]. Ushbu voqeylek xususida ma‘lumot keltirib o‘tgan Mu‘iniddin Natanziy Mahmudshoh Buxoroga kelgach, Yasovur qabilasiga tayanib, Amir Temurga to‘plangan mablag‘larni olib bormaydi. Chunki, Yasovur qabilasi yetakchilaridan bo‘lgan Ali Yasovuriy uning qaynotasi bo‘lgan[3. 141]. Bu esa, Buxoroda yasovuriylar yashaganligini ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mo‘g‘ullar istilosи davrida Movarounnahr hududlariga ko‘plab urug‘-qabilalar kirib kelganlar va O‘zbek xalqining etnik shakllanishida faol ishtirok etganlar. Shuningdek, kirib kelgan urug‘-qabilalarni turki, turk-mo‘g‘ul, mo‘g‘ul, tunguz va etnik shakllanishi hali ilmiy tadqiqotlar orqali o‘rganilmagan guruhalrha ham bo‘lishimiz mumkin. Chig‘atoy ulusida siyosiy parokandalik davrida urug‘-qabilalarning siyosiy hayotdagи mustaqilligi kuchaygan bo‘lsada ijtimoiy-iqtisodiy hayotda vayronkor kuchga aylanganlar. Amir Temur hukumronligi davrida birlashtiruvchilik va markazga intilishning asosiy kuchi bo‘lganlar va O‘zbek xalqi shakllanishida muhim o‘rin tutganlar.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул мухаррир: Х-Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Сайддосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бошк. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2001. – 293 б.

Арапов А.В. Каунасы-Никудерийцы и их роль в Чагатайской истории // Узбекистонда ижтимоий фанлар (Общественные науки Узбекистана). – Тошкент, 2004,

Н 2-3. – С. 61-67

Ахмедов, Б. Амир Темур: Тарихий роман (Махсус мұхаррир: Б. Омон). - Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995.- 640 б.

Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия// Бартольд В. В. Сочинения. - Т. I. - М.: Издательство восточной литературы, 1963. - 760 с.

Бартольд В.В. Сочинения. Том V. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. - Москва: Наука, 1968. - 759 с.

Грумм-Гржимайло Г.Е. Западная Монголия и Урянхайский край. Исторический очерк этих стран в связи с историей Средней Азии. Том. II. – Ленинград, 1926. - 896 с.

Заҳириддин Мұхаммад Бобур “Бобурнома” / нашрға тайёрловчилар Порсо Шамсиев, Содик Мирзаев. – Т.: Ӯзбекистон ССР фанлар академияси нашриёти, 1960. - 512 б.

Йаздий, Шарафуддун Али. Зафарнома // Сүз боши, табдил, изохлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрға тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков: Масъул мұхаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гурӯҳи И.Шоғуломов ва бошқалар// - Т.: Шарқ, 1997. – 384 б. + 16 илова.

Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. – Бишкек: Кыргыстан, 1995.- 160 с.

Мухаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий / Таржимонлар: Вахоб Рахмонов, Янгиш Эгамова, Масъул мұхаррир: академик Азиз Қаюмов // - Т.: «Sharq», 2010. - 720 б. + 32 зарв.

Натанзий Муиниддин Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси) / Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изохлар муаллифи Ғ.Каримий; масъул мұхаррир А.Уринбоев. – Т.: O’zbekiston, 2011. – 264 б.

Очир А. Монгольские этнонимы: вопросы происхождения и этнического состава монгольских народов. Элиста: КИГИ РАН. 2016. - 286 с.

Рашид ад-Дин. Сборник летописей / пер. с персидского Л.А. Хетагурова, редакция и примечания проф. А.А. Семенова. – М - Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. - Т. 1, кн. 1. - 219 с.

Рашид ад-Дин. Сборник летописей / пер. с персидского Л.А. Хетагурова, редакция и примечания проф. А.А. Семенова. – М - Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. - Т. 1, кн. 2. - 315 с.

Санчиров В.П. К вопросу о Дурбэн-ойратском союзе // Oriental Studies. - 2013. - Вып. 2. - С. 7-12.

Темур тузуклари /Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Карома- тов тарж.; Б. Ахмедов таҳр. остида; /Сўзбоши ва изохлар Б. Ахмедовники/. — Т.Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996. - 144 б.

Хофизи Абру. Зубдат ат-таворих. Фотих, (Истанбул] кутубхонаси кулёзмаси, № 4371/1.97а варак;

Энхцмэг Ц.Ц. Чагатайский улус (1221-1346 ) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Улан-Удэ: - 2004. – 22 с.

Orziyev M. On the aspects of zahiriddin muhammad babur's political activity related to bukhara. Центр научных публикатсий (buxdu. uz)

Orziyev M. Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари Центр научных публикатсий (buxdu. uz) 8 (8)

Orziyev M. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the temurids Центр научных публикатсий (buxdu. uz) 8 (8)